

## O'ZBEK KURASHI SPORTI TARIHI VA RIVOJLANISHI, HOZIRGI KUNDA DUNYODAGI O'RNI

*Ibrohimjanov Javohir Qahramon o'g'li.  
O'zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya Sport Universiteti,  
Milliy kurash turlari nazaryasi va kafedrasi  
uslubiyati kurash yo'nalishi talabasi.*

**Annotatsiya** Milliy Kurash sporti tarihiy 2000-yillikni o'z ichiga olib, qadim qadim dan to'ylarda milliy halq bayramlarida polvonlar kurashib kelishgan. Hozrgi kunda kurash sporti o'zbekistonda tez rivojlanib, Osiyo Yevropada 120-dan ortiq davlatlarda o'z federatsiyalarini tashkil qilgan va o'z o'rni ega hisoblanadi. Milliy qadriyatdan umum insoniy qadriyatga aylanib bugun jahon nigohini o'ziga mahliyo etgan kurash ma'naviy qadriyat va sport turi sifatida o'zining chuqur tarixiga ega, maqolada milliy kurashning rivojlanishi tarixi va dunyodagi o'rni haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Milliy kurash, kurash assotsiatsiysi, Pahlavon Mahmud, Sadiq polvon, milliy kurash tarihi rivojlanishi va yanada rivojlantirish.

**Abstract:** The history of the national wrestling sport includes the 2000th anniversary, since ancient times, wrestlers have been fighting at weddings and national holidays. Today, wrestling is developing rapidly in Uzbekistan, it has established its own federations in more than 90 countries in Asia, Europe and is considered to have its place. Wrestling, which has turned from a national value into a universal value, and has captivated the world's attention today, has a deep history as a spiritual value and a sport.

**Key words:** National wrestling, wrestling association, Pahlavon Mahmud, Sadiq the wrestler, development and further development of the history of national wrestlin.

**KIRISH** Sportga e'tibor yuksalgan jamiyat sog'lom jamiyat tarzida rivojanadi. Sportning barcha turlari borki, ular shaxsning nafaqat jismoniy barkamolligini, qolaversa ma'naviy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Xususan, kurash sporti milliy qadriyatlar himoyasi bo'lib, o'zida milliy g'urur, iftixon va yorug' kelajakka ishonch

tuyg'ularini mustahkamlashni ta'minlaydi. Kurashish san'ati ko'p xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma'lum.

1992-yilda Komil Yusupov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qabulida bo'ldi. Bo'lib o'tgan suhbat chog'ida o'zbek kurashini nafaqat ona diyorimizda, balki chet ellarda ham rivojlantirish masalalari muhokama etildi. Kurashni haqiqiy xalqaro sport turiga aylantirish, keyinchalik esa olimpiada o'yinlari dasturiga kiritish eng asosiy maqsad bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda milliy kurashimiz 120-dan ortiq davlatlarda federatsiyalari mavjud jahon, osiyo va osiyo o'yinlari musobaqalarida osiyo yevropa davlatlari muntazam raqabotlashib kelmoqda. Butun jahon nigohiga tushib, dovrug' va shuhrat qozonnayotgan, millionlarni o`ziga jalb etgan kurash ham jahonning yuksak ma'naviy qadriyatlaridan biri sifatida o'zining chuqur tarixiy ildizlariga egadir.

**ASOSIY QISM** Milliy kurash sporti qadimdan qadimdan 1.500-yillik tarixga ega bolib O'zbek halqi to'yi milliy bayramlarda kurashib raqabotlashib kelishgan. Zamonaviy sport kurashining asosiy qoidalari XVIII asr oxiri — XIX asr boshlarida Yevropaning bir necha mamlakatlarida paydo bola boshladi. 1912-yil Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasi (FILA) tuzildi(hozir unga 144 mamlakat a'zo, Xususan, mamlakatimiz unga 1993-yilda a'zo bolgan). Keyingi yillarda o'zbek kurashi ham alohida kurash turi sifatida dunyo miqyosida tan olina boshlandi. Kurash insonni kuchli, epchil, chidamli va irodali qilib tarbiyalovchi asosiy vositalardan biridir. Mutaxassislar nazorati ostida 12 yoshdan kurash bilan shug'ullanishga ruxsat etiladi. Kurash azaldan o'zbek turmush tarzining uzviy qismi bo'lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo'lyozmalar tasdiqlaydi. Qadimgi Baqtriya hududidan topilgan Bronza davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvon kurashi tasvirlangan. Yana bir artefaktda esa polvonlarning Kurash usullari namoyishi aks ettirilgan. Bu noyob topilmalar miloddan 1,5 mingyil ilgari ham kurash ajdodlarimiz turmush tarzining bir qismi bo'lganini anglatadi. Yunon yozuvchisi Klavdiy Elian (II-III asr) va boshqa tarixiy shaxslarning yozishicha, sak qabilasi qizlari o'zlariga kuyovni yigitlar bilan kurashib tanlaganlar. Keyinchalik qizlar kuyovni shart qo'yish yo'li bilan aniqlashgan va bu shartda kurash musobaqasi bo'lgan.

Kurashni sport turi sifatida rivojlantirish, dunyo miqyosida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish hamda jahonga olib chiqish to’g’risida fikr-m ulohazalar Komil Yusupovda 1980-yillarda tug ilgandi va bu g’oya izchillik bilan ilgari surildi. Shu yillar davomida u nomdor polvon sifatida respublikamizda o’tadigan to’ylar “davra kurashi” da faol ishtirokchi bo‘lish bilan bir vaqtida, milliy sportimiz an-anasi va urf-odatlarini o’rganishga ham qiziqardi. Shuning uchun ham K.Y usupov tom onidan milliy kurashni jahon arenasiga olib chiqish mumkinligi tug‘risidagi g’oya ilgari surildi.

Bir necha yillik izlanishlar natijasida ular tomonidan yaratilgan yangi qonun-qoidalar 1991-yil 14-15 iyunda chaqirilgan o‘rtta Osiyo va Q ozog‘iston vakillarining ilmiy konferensiyasida muhokama qilindi. Ikki kunlik qizg‘in munozaradan keyin qoidalar, hakam va kurashchilarning kiyimlari tasdiqlandi. Birinchi Prezidentimiz tomonidan 0‘zbekiston mustaqillig e’lon qilingandan 17 kun o’tgach, kurash qoidasining asosiy qismi ”Sport” gazetasining 1991-yil 17-sentyabr sonida e’ion qilindi.

Kurashni yanada rivojlantirish va ommalashtirish mamlakatimiz aholisining barcha qatlamlarini yoshidan qat’iy nazar sog‘lom turmush tarziga jalb qilish, yoshlarni Vatanga sadoqatli etib tarbiyalash, kurashni jahon xalqlarining sevimli sport turlaridan biriga aylantirish, uning halollik,adolatlilik, bag‘rikenglik kabi insonparvar g‘oyalarini dunyo ahliga yanada keng targ‘ib qilish, ushbu sohaga investitsiyalarni faol jalb etish orqali uni tijoratlashtirish hamda chinakam O‘zbek kurashi brendini ommalashtirishni nazarda tutadi.

1992-yilda O‘zbekistonda kurash federatsiyasi, tuzildi. 1998-yil sentabrdan Toshkentda 28 davlat (AQSH, Boliviya, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Rossiya, O‘zbekiston, Yaponiya va h.k.) vakillari Xalqaro kurash assotsiatsiyasi (IKA) muassisleri bo‘lishdi va shu munosabat bilan bu yerda o‘zbekcha kurash bo‘yicha yirik xalqaro musobaqa o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „Xalqaro kurash assotsiatsiyasini qo‘llab-quvvatlash to‘g’risida“gi farmoni (1999-yil 1-fevral) o‘zbek milliy kurash ining yavada rivojlanishiga turtki bo‘ldi. O‘sha yili Toshkentda o‘zbekcha kurash bo‘yicha birinchi jahon championati, Rossiyaning Bryansk shahrida

ayollar o‘rtasida xalqaro musobaqa bo‘lib o‘tdi. 2000-yil O‘zbekistonda kurash oyligi o‘tkazildi. Bu oylik davomida 2 mln ga yaqin kishi kurash gilamiga chiqdi. Buyuk Britaniyada IKA faxriy prezidenti Islom Karimov nomidagi an’anaviy xalqaro musobaqaga asos solindi. 2001-yildan Xalqaro kurash instituti (Toshkentda) faoli-yat ko‘rsata boshladi. IKA ga 66 ta milliy federatsiya a’zo bo‘lib kirdi (2003). Yevropa, Osiyo, Panamerika va Okeaniya kurash konfederatsiya lari tuzildi. Hozirgi paytda o‘zbekcha kurash bilan shug‘ulanib kelmoqda. xorijiy mamlakatlarda 600 mingdan ziyod kishi shug‘ullanadi. Kurashning bu turi bo‘yicha jahon, qita va mamlakatlar championatlari hamda birinchiklari, O‘zbekistonda AtTermiziy, Pahlavon Mahmud xotirasiga bag‘ishlangan va boshqa ko‘plab xalqaro musobaqalar muntazam o‘tkaziladi.

O‘zbek kurashini rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz Mirziyoyiv SH.M tamonidan 02.10.2017 yilda PQ-3306-qaroriga asosan “Kurash” milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qaror qabul qilingan. Keyinchali esa milliy kurash sport turini halqoro nufuzini oshirish va olimpiya o‘yinlariga kirgizish yo’lida: 04.11.2020 yildagi PQ-4881-sonli qaroriga asoson. Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

O‘zbek kurashi o‘zbek halqini qon qoniga singib ketgan bo‘lib milliy bayramlar to‘ylar kurash bahslarisiz o’tmaydi, o‘zbek kurashini yanada rivojlantirish maqsadida barcha viloyatlar pedagogika universitetlarida kurash fakulteti va kurash kafedralari tashkil qilindi, va universitet rektor kubuglari va prakror kubuglari tashkil qilinib kelinmoqda. Maktablarda jismoniy tarbiya darslarida ham kurash darslari mavjudligi quvonarli. Kurash sportini viloyatlar aro keng revojlanishi maqsadlarida va yaxshi sportchilarni tarbiyalash yo’lida barcha viloyat rahbarlariga yordamchi sifatida, har bir viloyatni har bir tumanlariga ijroji drektorlari saylandi, va chekka qishloqlarda kurash togaraklari tashkil etib kelinmoqda, hozirgi kunda kurash bilan shug‘ullanish uchun barcha shart sharoitlar yetarlicha.

O'zbek kurashini birinchi Jahan jempionati o'zimizda Toshkent da bolib o'tkan bu championatta 20-ortiq davlat va 50-ortiq sportchilar oltin medal uchun kurash olib borishgan. Bu musobaqada O'zbek kurash chilaridan A.Qurbonov K.Murodov T.Muhamadiyevlar birinchi jahon championi unvonini qolga kiritganlar. Shu championattan so'ng har yili Jahan championatlari har hil davlatlarda o'tkazib kelnimoqda.

O'zbek kurashi 2018-yili Jakartada Plembang yozgi oyinlari dasturudan joy oldi, bu musobaqada o'zbek polvonlari 6-oltin 2-kumush 4-boronza jami 12-ta medallariga sazavor bo'lishdi. Bu musobaqa yanada kurashimizni Osiyo davlatlarini yanada qiziqishiga sabab boldi. Osiyo davlatlarida O'zbek kurashi sportidan Milliy championatlari doim qizg'in bahslar bilan o'tqazib kelinadi. O'zbek xalqining kurashchi-polvonlarga bo'lgan hurmati juda katta, chunki ular o'zlarida jasurlilik mardlik, chidamlilik, ahloqiy poklik, erksevarlikni mujassamlashtiradilar. Kurashimizni xalqoro nufuzini oshirish maqsadida doim halqaro turnurlar tashkil etiladi ( Pahlavon Mahmud, Al Termizi Prezidentimiz sovruni ) bu musobqalarda Jahan polvonlari raqabotlashib keladi.

2023-yldagi Osiyo O'yinlari Xitoyning Guangjou shahrida bo'lib o'tti bu nufuzli musobaqada O'zbekiston terma jamoasi Osiyo o'yinlarini 22 ta oltin, 18 ta kumush va 31 ta bronza jami 71 ta medal bilan beshinchi o'rinda yakunladi. Bu mosobaqa O'zbek kurashi terma jamosi 4-olti 1-kumush 1-bronza jami 6-medal jamg'arib katta hissa qo'shdilar. Eng muhum jihatlaridan biri jaxon arenalarida O'zbek kurashida ishlatiladigon iboralar (halol, yonbosh, chala, tanbeh, dakki, jazo) so'zleri O'zbek tilida ishlatilishi davlatimizni va milliy kurash sportimizni dunyoda o'z o'rmini yuqori o'rinalaga olib chiqmoqda.

**XULOSA** O'zbek kurashi bugun o'z dovrug'ini olamga yoydi. O'zbek xalqini jahonga tanitdi. Bu milliy o'yinda qo'llanilayotgan bir qator atamalar dunyoning deyarli barcha burchagida yangramoqda: Bularning barchasini zamirida mustaqillikdan keyin o'zimizning ota- bobolarimizdan bizgacha qolib, meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlarimizni tiklanishi bugungi kunga kelib ancha jadallahsgan

deyishimiz mumkin. Shuning bilan birga o'zbek millati, o'zbek tili va boshqa milliy an'analarimizni dunyodagi ko'plab davlatlar bilishi va tan olishiga olib kelmoqda. Xalqaro sport harakatining ilg'or tajribalariga tayangan holda O'zbekistonda jismoniy madaniyat qadriyatlar negizidagi ma'naviy –ma'rifiy madaniyat bilan sug'orilmoqda va o'z navbatida ular qadriyatlarimiz va ma'naviy – ma'rifiy jarayonlarda xizmat qilib kelmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (References):**

1. Yusupov K. Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi. – Toshkent, 2005.
2. Atoyev A. Kurash. – Toshkent: O'qituvchi, 1987.
3. Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: Sano-standart, 2017.
4. Saloydinov, S. Q. O. G.
4. Shodi Bobomurodovich Umirov. Kurashchilar jismoniy fazilatlarni rivojlantirish. Scientific progress. 2021. 49-b
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek>
6. Yusupov K., Kurash, T., 1999; Mo'minov A., Prezident. Sport. G'alaba!, T., 2001.
7. <https://yuz.uz/uz/news>
8. Shodi Bobomurodovich Umirov. Milliy kurashning ommaviylashividida xalq bohodirlarining o'rni. Central asian academic journal of scientific research. 2021. 151-bet
- 9 O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil